



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
III chorak tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 5-sinf tarixi fanidan III chorak uchun taqvim
mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Yevropada ilm-fan kashfiyotlari (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e’lon qilish)	1		
2.	Turkiston ma’rifatparvarlari	1		
3.	To‘maris va Shiroq jasorati	1		
4.	Spitamenning qahramonligi	1		
5.	Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashi	1		
6.	Jaloliddin Manguberdi xalqimizning milliy qahramoni	1		
7.	Sohibqiron Amir Temur	1		
8.	Qaramlikka tushish	1		
9.	O‘zbek xalqining otashqalb farzandi	1		
10.	BSB - 3. (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti	1		
11.	O‘zbekistonning tarixiy shaharlari	1		
12.	Toshkent – 2200 yoshda	1		
13.	O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy yodgorliklari	1		
14.	O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy yodgorliklari	1		
15.	Jahonning mumtoz tarixiy yodgorliklari	1		
16.	Birinchi jahon urushi	1		
17.	Ikkinchi jahon urushi	1		
18.	Ikkinchi jahon urushi	1		
19.	CHSB – 3. (40 ball)	1		
20.	O‘zbekistonning buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yevropada ilm-fan kashfiyotlari (**Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e’lon qilish**)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo’lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an’analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o’z hissasini qo’shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarni mustaqil ishlashga o’rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg’ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarning mavzuga oid bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg’otish.

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish va javob berish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umumbashariy ahamiyatga ega bo’lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an’analar va h.k.) hurmat qilish.

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Nikolay Kopernik. XVI asrdan boshlab Yevropada ham ilmfan Ktaraqqiy eta boshladi. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida buyuk kashfiyotlar amalga oshirildi. Bu kashfiyotlar polshalik Nikolay Kopernik va Italiya olimlari Jordano Bruno va Galileo Galileylar

nomi bilan bog'liqdir. Polshalik astronom olim Nikolay Kopernik o'zigacha astronomiya fanida hukm surib kelgan qoida va tasavvurlarning noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi. Milodning ikkinchi asrida yunon olimi **Ptolemey** Yer olam markazidir, degan qoidani fanga kiritdi. Bu qoidaga ko'ra, Quyosh, Oy va yulduzlar Yer atrofida aylanadi. Yerning o'zi harakatsiz. Ptolemey qoidasining xato ekanligini birinchi bo'lib Nikolay Kopernik isbotlab berdi. Kopernik Yer bir sutkada o'z o'qi atrofida bir marta, bir yilda esa Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishini isbotladi. Demak, Quyosh Yer atrofida emas, Yer Quyosh atrofida aylanadi. Olamning markazi Yer emas, Quyoshdir. Bu haqiqat fandagi buyuk kashfiyot bo'ldi.

Nikolay Kopernik olamning markazi Quyosh ekanligini isbotlab berdi. Bu kashfiyot ayni paytda diniy aqidalarga ham zarba berdi. Kopernik «**Osmon jismlarining aylanishi haqida**» kitobida o'z kashfiyotining mazmunini bayon etdi. Mazkur kitob tezda mashhur bo'lib ketdi. Biroq kitob cherkovning qahriga uchradi va taqiqlab qo'yildi.

Jordano Bruno. Italiyalik olim Jordano Bruno yoshligidanoq astronomiya faniga katta qiziqish bilan qaradi. Shu soha olimlarining asarlarini qunt bilan o'rgandi. Nikolay Kopernik qoidasini yoqlab chiqdi. Uning fikricha, olam cheksiz. Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat. Ularning har biri Yerdan ancha uzoqda joylashgan Quyoshdir. Jordano Bruno bunday fikrlari uchun cherkov tomonidan zindonga tashlandi. Biroq zindon azobi ham uni o'z fikridan qaytara olmadi. Brunoning dushmani bo'lgan ruhoniylar uni 1600-yilda gulxanda yoqib yubordilar.

Galileo Galiley. Italiyaning yana bir olimi Galiley dunyoda birinchi bo'lib Nikolay Kopernik va Jordano Bruno aytgan fikrlar to'g'riligini osmon jismlarini o'zi yaratgan teleskop yordamida kuzatish orqali isbotlab berdi. Bu ishi uchun 1633-yilda cherkov uni qattiq ta'qib ostiga oldi. O'lim bilan qo'rqitib, qattiq azob-uqubatlarga duchor etdi. Natijada, Galiley o'z fikridan voz kechishga majbur bo'ldi. Biroq u qalban Kopernik ta'limotining tarafdori bo'lib qolaverdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Yevropa olimlari astronomiya ilmi rivojiga qanday hissa qo'shdilar?

2. Nega ruhoniylar astronom olimlarni ta'qib ostiga olganlar?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.




Nikolay Kopernik



Quyosh – olam markazi



Jordano Bruno



Galileo Galiley

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Turkiston ma'rifatparvarlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo'lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an'analar va boy ma'naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual kamolotga intilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

Tarixda yil hisobini o'qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o'qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o'qiy oladi. Miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o'rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ma'rifat va ma'rifatparvarlik haqida. *Ma'rifat – bu zamonaviy ta'lim yordamida kishilarning bilimi va ongini oshirish.* O'z faoliyatini bu ishga bag'ishlagan kishilar esa ma'rifatparvarlar deb ataladi. Yurtimizda esa ular jadidlar deb, faoliyatlari esa jadidchilik

deb ataldi. Jadidlar faoliyati boshlangan davrda yurtimiz Rossiya imperiyasi mustamlakasi ostida bo'lganligi bilan birga juda qoloq ham edi.

Yodda tuting!

Jadid (*arabcha* – yangi) – yangilik tarafdori, yangilik uchun kurashuvchi.

Jadidlar Turkiston ilg'or mamlakatlar qatoriga ko'tarilishini istaganlar. Buning uchun zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislar zarurligini yaxshi tushunganlar. Zamon talabiga yarasha bilim bermayotgan mavjud maktabxona va madrasalar bilan esa bu vazifani hal etib bo'lmaz edi. Shu sababli ular o'z oldilariga, birinchi navbatda, yurtimiz maktablarida hukm surayotgan eski tartiblar va eski o'qitish usullarini yangilash maqsadini qo'ydilar. Eski maktablarda, asosan, diniy bilimlar o'qitilgan. Tabiiy fanlar (fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, zamonaviy tibbiyot kabi fanlar) esa deyarli o'qitilmagan. Yosh avlodga bunday fanlarni o'rgatmay turib, yurt taraqqiyotiga erishib bo'lmaz edi. Jadidchilik harakatiga taraqqiyparvar ziyolilar rahbarlik qilishdi. Ular ishni dastlab **yangi usul** (usuli jadid) maktablarini ochishdan boshladilar. Yangi usul maktablarida diniy ta'lim bilan bir qatorda, tabiat fanlaridan ham saboq berila boshlandi. Jadidlar iqtidorli bolalarni chet ellarga o'qishga yuborishni ham tashkil etdilar. Xalqning ongini o'zgartirish uchun turli gazeta va jurnallar nashr ettirdilar. Teatrlar tashkil etib, ularda kishilarni o'yga toldiruvchi asarlarni sahnalashtirdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar Turkiston jadidchilik harakatining rahbarlari edilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Behbudiy 1875-yilda Samarqandda tug'ildi. O'z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egalladi. U yangi usul maktabini ochdi. Bu maktab uchun «**Savod chiqarish kitobi**», «**Qisqacha umumiy geografiya**», «**Aholi geografiyasiga kirish**» deb nomlangan darsliklar yozdi. «Padarkush» nomli sahna asari katta shuhrat qozondi. Bu asarda o'qimagan, johil va nodon o'g'ilning qanday qilib o'z otasi qotiliga aylanganligi haqida hikoya qilinadi. Behbudiy «Samarqand» deb ataluvchi gazeta va «Oyina» deb ataluvchi jurnal ham nashr ettirdi. Ularning sahifalarida yosh avlodni vatanparvar bo'lishga, jahon ilm-fani yutuqlarini puxta egallashga da'vat etdi. 1919-yilda Behbudiy ozodlik dushmanlari tomonidan o'ldirildi. 2020-yilda yurtimizda Behbudiy tavalludining 145 yilligi keng nishonlandi. «Zamon ilmi va fanidan bebahra xalq boshqalarga poymol bo'lur». **Behbudiy**

Abdulla Avloniy. Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Maktabxona va madrasada ilm oldi. Arab, fors va rus tillarini yaxshi o'rgandi. Toshkentda yangi usul maktabini ochdi. O'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. O'quvchilar uchun «**Birinchi muallim**», «**Ikkinchi muallim**», «**Turkiy guliston yoxud axloq**» kabi darsliklar



**Mahmudxo'ja
Behbudiy**



**Abdulla Avloniy
(1878—1934)**



**Munavvarqori
Abdurashidxonov
(1878—1931)**

(O‘qish kitoblari) yozdi. «Turon» deb ataluvchi teatr jamoasini tuzdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov. Munavvar qori Abdurashidxonov ham 1901-yilda Toshkentda yangi usul maktabini ochdi. Bu maktab uchun «**Tovush chiqarib o‘qish usuli**», «**O‘qish kitobi**», «**Yer yuzi**» («**Geografiya**») kabi darsliklar yozdi. Bora-bora Turkiston jadidlar harakatining yo‘lboshchisiga aylandi. Yoshlarni Yevropa ilm-fanini o‘rganishga chaqirdi. O‘zbekistonning mustaqilligi uchun kurashganligi uchun 1931-yilda otib tashlandi. Ozodlik uchun kurashganlar nomi va xotirasi hamisha barhayot. Vatan ozodligi yo‘lida halok bo‘lganlarning nomi hech qachon unutilmaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ularning qutlug‘ nomlari, sha‘nlari to‘la tiklandi. Bu ishga shaxsan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarlik qildi. U kishining tashabbusi bilan 2000-yilda Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi. 2002-yilda esa shu majmuaning tarkibiy qismi sifatida, «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etildi. Shu tariqa Vatan ozodligi yo‘lida halok bo‘lganlar xotirasi abadiylashtirildi.

Atamalar mazmunini bilib oling

Mustamlaka – o‘zidan kuchli davlat tomonidan bosib olingan mamlakat.

Qatag‘on – erkin fikrlovchi kishilarni quvg‘in qilish, jismonan yo‘q qilish

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Turkistonda ma‘rifatparvarlik harakatini vujudga keltirgan sabablarni qayd eting.
2. Jadidlar nega o‘z faoliyatlarini yangi usul (usuli jadid) maktablarini tashkil etishdan boshlaganlar?
3. Behbudiy hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Munavvar qori Abdurashidxonov hayoti va faoliyati haqida so‘zlab bering.
5. Jadidlarning yurtimizni ilg‘or davlatlar qatoriga ko‘tarish yo‘lida olib borgan kurashlari bilan Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekistonni 10–15 yil ichida dunyoning rivojlangan 50 ta davlati qatoridan joy egallashi uchun olib borayotgan kurashi o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslang.

V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish:

T/r	Turkiston ma‘rifatparvarlari	Qachon va qayerda tug‘ilgan edi	Maqsadlari	Qachon va qayerda yangi usul maktablari ochdilar	Yaratgan darsliklari
1.	Behbudiy				
2.	Avloniy				
3.	Munavvar qori				

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

52 listdan iborat 5-sinf tarix fanidan III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**